DOI

Ne'matova Gulnozaxon Valijon qizi
nematovagulnoza618@gmail.com
+998 91 7791904

TAOM NOMLARI TARJIMASI MUAMMOLARI

ANNOTATION:*This study comprehensively describes the formation of Uzbek, Russian and English food names, problems in translation cookbooks and menus. In recent years, all aspects of tourism, including gastronomic tourism, are developing rapidly. Gastronomy is increasingly recognized as an important part of culture, and food is emerging as a great tool for communicating with other people and communities. Improving the quality of service in gastronomic tourism largely depends on the adequate translation of the range of food products, as well as the language requirements for English texts in restaurants and cafeterias. The study of the methodology of translation of national cuisine names is one of the current issues of modern translation studies.*

Key words: *Gastronomy, gastronomic tourism, food, Uzbek , Russian, English foods, trasnslation.*

So'nggi yillarda turizmining barcha jabhalari shu jumladan gastronamik turizm kundan-kunga jadal rivojlanmoqda. Gastronomiya madaniyatning muhim qismi sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda va taom boshqa odamlar va jamoalar bilan muloqot qilish uchun ajoyib vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Milliy oshxona nominantlarini tarjima qilish metodologiyasini o‘rganish zamonaviy tarjimashunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. Eng katta qiyinchilik - bu taomlarning sarlavhalari yoki nomlari, ingredientlar nomlari hamda "pazandachilik" leksemalarining tarjimasidir. Ko‘pincha bu leksemalar bir qator ekvivalent bo‘lmagan birliklarga tegishli bo‘lib, tarjima jarayonini murakkablashtiradi. Taom nomlarning boshqa tillarda berilishini tahlil qilish, ularni berilishiga oid tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb muammolaridandir.

Tadqiqotga qo'yilgan vazifalarni hal qilish uchun quyidagi tadqiqot usullari qo'llanildi: tarixiy-etimologik -o’zbek, rus va ingliz tillaridagi taom nomlarining kelib chiqish etimologiyasi qiyoslab o’rganildi, tasniflash-oshxona kitoblari turlari klassifikatsiya qilindi, tavsiflash - menyularning tuzilishi ko’rib chiqildi va qiyosiy-chog’ishtirma o’zbek, rus, va ingliz tilida yozilgan menyular qiyoslandi.

Taomlarning nomlanish motivlari uchchala chog’ishtirilayotgan tillarda yani o’zbek , rus va ingliz tillarida deyarli bir xil dir. Taom nomlari quyidagi motivlarga ko’ra turlarga bo’linadi : o’zlashgan qatlam taom nomlari, tayyorlangan mahsulot nomi bilan kelgan taomlar va qaysi oshxona asbobida tayyorlanganligiga ko’ra nomlar. Tadqiqot natijasiga ko’ra ingliz va rus taomlarini nomlashda O’zbek tilida uchraydigan tasodifiy antiqa nomlar va ikki mustaqil taom kombinatsiyasidan tashkil topgan taom nomlari kabi guruhlar mavjid emas. Taomni nomlashda uchchala qiyoslanayotgan tilda eng ko’p uchraydigan motivlari bu tayyorlangan mahsulot nomi bilan nomlangan taom nomlari. Uchchala tilda kam uchraydigan motiv esa boshqa predmetga o’xshashligiga ko’ra taom nomlaridir. O’zbek va Rus taom nomlarida iste’mol qilinadigan ijtimoiy tabaqa vakillari nomidagi taomlar mavjud ammo ingliz tilida bu motiv boyicha taom nomlari mavjud emas.

Menyu tarjimasida madaniy elementlar juda muhum o’rin tutadi, ko’pincha menyularni tarjima qilinayotgan tilda aniq ekvivalentini topish qiyindir. Menyu va retsept tarjimasida asosan Transletiratsiya, Deskriptiv (izohlash), va Adabtatsiya usulidan keng

https://wordlyknowledge.uz

foydalaniladi. Bu usullar orqali tarjima qilingan taom nomlari to'g'ri va tushunarli tarjima qilinadi. Uchchala tilda qiyoslangan taomnomalarga ko'ra taomlarni faqatgina transletiratsiya usulidan foydalanilgan hamda izoh tariqasida maxsulotlar nomi yozilgan.

Xulosa qilib aytganda ingliz, Rus va O'zbek taom nomlarinining nomlanish motivlari deyarli bir biriga o'xshashdir. Bu motivlarga ko'ra taomlar asosan : o'zlashgan qatlam taom nomlari, tayyorlangan mahsulot nomi bilan kelgan taomlar, toponomik xususiyatiga ko'ra nomlar, qaysi oshxona asbobida tayyorlanganligiga ko'ra nomlarga qarab nomlanar ekan. Taomnomalardagi taom nomlarini shunchaki transliteratsiya qilishning o'zi yetarli emas. Transkriptsiya va transliteratsiya, qisman transkriptsiya, izohli transkriptsiya, adaptatsiya, perefraza, generalizatsiya va konkretizatsiya transformatsiyalarida foydalanish orqali taomnomalar tushunarli va tog'ri tarjima qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Банман П. П. Кулинарный дискурс / П. П. Бан-ман. — Ставрополь: Ставропольское книжное изд-во, 2009. — 280 с.
2. Буркова П. П. Кулинарный рецепт как особый тип текста: автореф. дис. ... канд. филол. наук: спец. 0.02.19 «Теория языка»; 10.02.01 «Русский язык» /
3. Davis M. A Taste for New York: Restaurant Reviews, Food Discourse, and the Field of Gastronomy in America /M. Davis. — New York : New York University, 2009. — 292p.
4. Mahmudov Karim. O'zbek tansiq taomlari. – Tashkent: Mehnat. 1989. – B. 52.
5. Odilova G. K. Problems of translation and comparative stylistic analysis of the Uzbek and English national food nominess.Philology Matters: Vol. 2019 : Iss. 2 , Article

WORDLY KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz